




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, mlrd. so'm



Yirik korxonalar



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

O'sish sur'atlari, % da



Tarkibiy qism, % da



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari



Yirik korxonalar




5,0

Uyushmagan savdo

Dastlabki ma'lumotlar

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 064,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **0,6 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi **96,2** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **93,2 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi **968,7** mlrd. so'mni (**0,1 %** ga ko'paydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **53,0** mlrd. so'mni (**9,5 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

Uyushmagan savdo, mlrd. so'm





HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

ENG YUQORI ULUSH

Navoiy sh.
334,0

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Navoiy shahri **31,4 %** ulush bilan **334,0** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Karmana t.
182,5

Xatirchi t.
129,6

Qiziltepa t.
126,1

Zarafshon sh.
101,9

Nurota t.
54,5

Uchquduq t.
49,2

Navbahor t.
47,0

Konimex t.
31,6

Tomdi t.
8,5

UMUMIY MA'LUMOT

Viloyat bo'yicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **1 064,9** mlrd. so'mni, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **99,4 %** ni tashkil etdi.

Viloyatimizning Navoiy shahri, Karmana, Qiziltepa, Navbahor va Tomdi tumanlaridan tashqari barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasida o'sish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida **91,0 %** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga va **9,0 %** yirik korxonalar hissasiga to'g'ri keldi.

ENG QUYI ULUSH

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Tomdi tumani **0,8 %** ulush bilan **8,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.





CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, % da	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	1 064,9	99,4	96,2	93,2	968,7	100,1
Navoiy sh.	334,0	98,5	79,4	82,5	254,6	104,9
Zarafshon sh.	101,9	100,3	3,2	159,0	98,7	99,1
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	182,5	99,5	4,9	11,8 m	177,6	97,0
Konimex	31,6	100,7	1,0	5,8 m	30,6	98,1
Qiziltepa	126,1	99,3	2,2	196,6	123,9	98,5
Navbahor	47,0	98,8	0,5	3,8 m	46,5	97,9
Nurota	54,5	100,5	0,7	2,0 m	53,8	99,8
Tomdi	8,5	99,0	0,1	120,4	8,4	98,8
Uchquduq	49,2	100,9	0,6	2,0 m	48,6	100,3
Xatirchi	129,6	100,1	3,6	151,4	126,0	99,1

2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan viloyatning Uchquduq (100,9 %) Konimex (100,7 %), Nurota (100,5 %), va Xatirchi tumanlarida (100,1 %) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi, nisbatan past ko'rsatkichlar Navoiy shahri (98,5 %) va Navbahor (98,8 %) tumanida qayd etildi.




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Yirik korxonalar




**Eng yuqori ulushga
ega hududlar, % da**




Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning chakana savdo tovar aylanmasi hajmi, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **6,8 %** ga kamaydi va **96,2** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiylar hajmining **9,0 %** ulushiga to'g'ri keladi.

**Kichik biznes va xususiy
tadbirkorlik subyektlari**



**Eng yuqori ulushga
ega hududlar, % da**




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **968,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2020-yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **0,1 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **91,0 %** ni tashkil etdi.



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, % da

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Tomdi (**99,4 %**), Uchquduq (**98,9 %**), Navbahor (**98,8 %**), Nurota (**98,7 %**), Qiziltepa (**98,3 %**), tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **9,0 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Navoiy (**23,8 %**) va Zarafshon (**3,1 %**) shaharlarida, Konimex (**3,2 %**) va Xatirchi (**2,8 %**) tumanlarida kuzatildi.





AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2021- yilning yanvar-fevral oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 059,1** ming so'm (2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **2,3 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Navoiy shahri (**2 294,0** ming so'm), Karmana (**1 438,1** ming so'm) va Uchquduq (**1 311,5** ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

	Hajm, ming so'm	2020- yil yanvar – fevral oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	1 059,1	97,7
Navoiy sh.	2 294,0	96,8
Zarafshon sh.	1 206,0	98,6
<i>tumanlar:</i>		
Karmana	1 438,1	97,0
Konimex	881,3	99,0
Qiziltepa	825,0	97,8
Navbahor	413,2	97,1
Nurota	584,4	98,8
Tomdi	568,0	97,0
Uchquduq	1 311,5	100,1
Xatirchi	647,0	98,5





UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, % da




Dehqon
bozorlari



Chorva (parranda)
bozorlari

O'sish (o'zgarish) sur'atlari, % da



Uyushmagan
savdo

Shu jumladan:

Dehqon
bozorlari

Chorva
bozorlari

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, % da

Savdo tovar aylanmasi hajmi va ulushi

Uyushmagan savdo


53,0 mlrd. so'm, 100 %

Dehqon
bozorlari

28,1 mlrd. so'm,
53,0 %

Chorva
bozorlari

24,9 mlrd. so'm,
47,0 %





UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, % da	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, % da	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	53,0	90,5	28,1	98,2	24,9	83,0
Navoiy sh.	10,4	104,4	10,4	104,4	-	-
Zarafshon sh.	0,3	15,1	0,3	15,1	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	14,8	73,2	1,3	117,3	13,5	70,7
Konimex	1,9	106,1	0,7	103,5	1,2	107,8
Qiziltepa	5,5	94,8	2,9	114,9	2,6	79,0
Navbahor	0,2	108,9	0,2	108,9	-	-
Nurota	3,6	124,6	1,3	115,2	2,3	130,4
Tomdi	0,4	54,6	0,4	54,6	-	-
Uchquduq	0,7	95,8	0,7	95,8	-	-
Xatirchi	15,2	105,4	9,9	102,0	5,3	112,3

2021- yilning yanvar-fevral oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo tovar aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **28,1** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **24,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar (YaTT)ni qo'shmagani holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: DEHQON BOZORLARI



2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo tovar aylanmasi hajmi **28,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosi (**15,4** mlrd. so'm) ga to'g'ri keldi.



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI



2021- yilning yanvar-fevral oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo tovar aylanmasi hajmi **24,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdag'i qora mollar savdosi **19,7** mlrd. so'mni, qo'y va echkilar **4,9** mlrd. so'mni, otlar **0,1** mlrd. so'mni, parrandalar **0,2** mlrd. so'mni tashkil etdi.



UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mln. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, % da	Yirik korxonalar, mln. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, % da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mln. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	25 076,4	92,9	2 448,1	146,1	22 628,3	89,4
Navoiy sh.	9 077,6	86,7	1 384,9	84,4	7 692,7	87,1
Zarafshon sh.	4 299,1	116,1	1 031,2	-	3 267,9	88,2
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	4 350,2	93,2	32,0	93,7	4 318,2	93,2
Konimex	516,2	91,5	-	-	516,2	91,5
Qiziltepa	2 093,1	90,2	-	-	2 093,1	90,2
Navbahor	823,6	90,3	-	-	823,6	90,3
Nurota	630,6	90,2	-	-	630,6	90,2
Tomdi	81,9	72,2	-	-	81,9	72,2
Uchquduq	958,8	89,4	-	-	958,8	89,5
Xatirchi	2 245,3	91,2	-	-	2 245,3	91,2

2021- yilning yanvar-fevral oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **2,4 %** ni tashkil etib, **25,1 mlrd. so'mga** yetdi va 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **7,1 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **90,2 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.



MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO TOVAR AYLANMASI

	Jami, mlrd. so'm	Ulushi, % da	Nodavlat mulk, mlrd. so'm	Ulushi, % da	Davlat mulki, mlrd. so'm	Ulushi, % da
Navoiy viloyati	25,1	100,0	23,7	94,6	1,4	5,4
Navoiy sh.	9,1	36,2	7,7	85,0	1,4	15,0
Zarafshon sh.	4,3	17,1	4,3	100,0	-	-
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	4,4	17,3	4,4	100,0	-	-
Konimex	0,5	2,1	0,5	100,0	-	-
Qiziltepa	2,1	8,3	2,1	100,0	-	-
Navbahor	0,8	3,3	0,8	100,0	-	-
Nurota	0,6	2,5	0,6	100,0	-	-
Tomdi	0,1	0,3	0,1	100,0	-	-
Uchquduq	1,0	3,8	1,0	100,0	-	-
Xatirchi	2,2	9,0	2,2	100,0	-	-

2020- yil
yanvar-fevral



2021- yil
yanvar-fevral



Nodavlat mulk

Davlat mulki

2020- yilning yanvar-fevral oylari bilan solishtirilganda davlat mulki bo'lgan umumiyo ovqatlanish korxonalarining jami savdo tovar aylanmasidagi ulushi 6,0 % dan 5,4 % ga kamaydi.

Umumiyo ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi **25,1** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati **92,9 %**) va mulkchilik shakllari bo'yicha **23,7** mlrd. so'm nodavlat mulkka (**94,6 %**) hamda **1,4** mlrd. so'm (**5,4 %**) davlat mulkiga to'g'ri keldi.



ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, % da




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, % da



Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo tovar aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo

157,4 mlrd. soʼm, 100 %


Yirik korxonalar

26,4 mlrd. soʼm,
16,8 %

Mikrofirma va kichik korxonalar

131,0 mlrd. soʼm, 83,2 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar, % da



Viloyat boʼyicha 2021- yilning yanvar-fevral oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **157,4** mlrd. soʼmni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **16,7** % ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **26,4** mlrd. soʼmni (oʼzgarish surʼati **45,3** %), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **131,0** mlrd. soʼmni (**0,2** % ga oʼsdi) tashkil etdi.



ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

	Jami, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, % da	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, % da	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2020- yil yanvar- fevral oylariga nisbatan, % da
Navoiy viloyati	157,4	83,3	26,4	45,3	131,0	100,2
Navoiy sh.	74,6	69,8	24,8	42,7	49,8	102,0
Zarafshon sh.	3,3	104,3	-	-	3,3	104,3
<i>tumanlar:</i>						
Karmana	46,3	104,4	1,2	-	45,1	101,7
Konimex	0,9	164,7	0,4	-	0,5	91,2
Qiziltepa	16,6	115,4	-	-	16,6	115,4
Navbahor	4,5	90,3	-	-	4,5	90,3
Nurota	1,9	60,2	-	-	1,9	60,2
Tomdi	0,1	51,7	-	-	0,1	51,6
Uchquduq	2,5	78,8	-	-	2,5	78,8
Xatirchi	6,7	82,5	-	-	6,7	84,6

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlari Konimex (164,7 %), Qiziltepa (115,4 %), Karmana (104,4 %) tumanlarida va Zarafshon (104,3 %) shahrida kuzatildi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida 2020- yilning mos davriga nisbatan kamayish ko'rsatkichlarini Navoiy (69,8 %) shahrida hamda Navbahor (90,3 %), Xatirchi (82,5 %), Uchquduq (78,8 %), Nurota (60,2 %) va Tomdi (51,7 %) tumanlarida ko'rishimiz mumkin.



MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rni ko'payib bormoqda. Hisobot davrida ushbu sektorning jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi **0,17 %** ni tashkil qildi. 2021- yilning yanvar-fevral oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi **157,4** mlrd. so'mni tashkil etib, shu jumladan, nodavlat tasarrufga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo tovar aylanmasi **157,1** mlrd. so'mni va davlat tasarrufiga ega korxonalar tomonidan **0,3** mlrd.so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi bo'yicha mulkchilik shakllarining ulushi tahlil qilinganda, davlat mulkini hozirda faqatgina Karmana tumanida saqlanib qoliganligini ko'rish mumkin. Boshqa barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.